

Date: 25th March-2026

**RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA INNOVATSION
IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH OMILLARI**

Shaydinov Xudoyberdi Shukurulla o'gli

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti 1kurs talabasi

E-mail: xudoyberdishaydinov@gmail.com

Zakirova Sayyora Alimovna

Ilmiy rahbar: Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

o'qituvchisi, Iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD)

E-mail: sayyora.6262@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli transformatsiya sharoitida innovatsion iqtisodiyotning rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar o'rganildi. Maqolada raqamli texnologiyalar, ilm-fan va ta'lim salohiyati, investitsiyalar, innovatsion infratuzilma hamda davlat siyosatining innovatsion rivojlanishga ta'siri ko'rib chiqildi. Shuningdek, raqamli iqtisodiyot sharoitida yangi texnologiyalarni joriy etish, raqamli platformalardan samarali foydalanish va bilimga asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirish masalalari yoritildi. Maqola natijalari innovatsion iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda raqamli transformatsiyaning muhim ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatilib o'tildi.

Kalit so'zlar: Raqamli transformatsiya, innovatsion iqtisodiyot, raqamli infratuzilma, raqobatbardoshlik, globallashuv, axborot texnologiyalari.

Annotation: This article examines the main factors influencing the development of an innovative economy in the context of digital transformation. The paper analyzes the role of digital technologies, the potential of science and education, investments, innovative infrastructure, and state policy in fostering innovative development. In addition, the study highlights issues related to the introduction of new technologies, effective use of digital platforms, and the development of a knowledge-based economy in the conditions of the digital economy. The results of the article show that digital transformation plays an important role in the sustainable development of an innovative economy.

Keywords: Digital transformation, innovative economy, digital infrastructure, competitiveness, information technologies.

Аннотация: В данной статье рассматриваются основные факторы, влияющие на развитие инновационной экономики в условиях цифровой трансформации. В работе анализируется роль цифровых технологий, потенциала науки и образования, инвестиций, инновационной инфраструктуры, а также государственной политики в развитии инноваций. Кроме того, освещаются вопросы внедрения новых технологий, эффективного использования цифровых платформ и развития экономики, основанной на знаниях, в условиях цифровой экономики. Результаты статьи показывают, что цифровая трансформация играет важную роль в устойчивом развитии инновационной экономики.

Ключевые слова: цифровая трансформация, инновационная экономика, цифровая инфраструктура, конкурентоспособность, информационные технологии.



Date: 25th March-2026

Kirish

Hozirgi globallashuv davrda jahon iqtisodiyoti raqamli transformatsiya jarayonini jadal sur'atlarda rivojlanmoqda. Raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, boshqaruv va tadbirkorlik sohalarining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada an'anaviy ishlab chiqarish omillariga asoslangan iqtisodiy model o'rnini bilim, ma'lumot va zamonaviy axborot texnologiyalariga tayanadigan raqamli iqtisodiyot egallab bormoqda. Innovatsion iqtisodiyot yangi bilimlar, ilmiy tadqiqotlar va ilg'or texnologiyalarga asoslanib, iqtisodiy samaradorlikni oshirish va raqobatbardoshlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu sababli raqamli transformatsiya sharoitida innovatsion iqtisodiyotning rivojlanish omillarini o'rganish va ularning iqtisodiy jarayonlarga ta'sirini ilmiy jihatdan tahlil qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi raqamli transformatsiya sharoitida innovatsion iqtisodiyotning rivojlanish omillarini tahlil qilish, ularning iqtisodiy taraqqiyotga ta'sirini o'rganish hamda ushbu jarayonlarni yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Raqamli transformatsiya zamonaviy iqtisodiyot rivojlanishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish natijasida iqtisodiy faoliyatning ko'plab sohalarida yangi innovatsion yondashuvlar shakllanmoqda. Bu jarayon ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xizmatlar sifatini yaxshilash hamda iqtisodiy jarayonlarni optimallashtirishga xizmat qilmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda raqamli transformatsiya innovatsion iqtisodiyot rivojlanishining asosiy omillaridan biri sifatida baholanadi. Jumladan, Toxirov R.[1] tadqiqotlarida biznes subyektlarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlanadi. Muallifning fikricha, raqamli platformalar, elektron tijorat va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari korxonalar faoliyatining samaradorligini oshirishga hamda yangi biznes modellarini shakllantirishga yordam beradi.

Raqamli transformatsiya jarayonida investitsiyalarning o'zni ham alohida ahamiyatga ega. Rafiyeva Z. [2] o'z tadqiqotida raqamli infratuzilmaga kiritilayotgan investitsiyalar iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim omillaridan biri ekanligini qayd etadi. Raqamli infratuzilmaning rivojlanishi internet tarmoqlarining kengayishi, ma'lumotlar markazlari, bulutli texnologiyalar hamda zamonaviy axborot tizimlarining joriy etilishi orqali iqtisodiyotning turli sohalarida samaradorlikni oshiradi.

Innovatsion iqtisodiyotning rivojlanishida inson kapitali ham muhim rol o'ynaydi. Umarmuklov K. va Abdunosirova N.[3] tadqiqotlarida raqamli transformatsiya sharoitida malakali kadrlar tayyorlash, ta'lim tizimini modernizatsiya qilish hamda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish zarurligi ta'kidlanadi. Zamonaviy iqtisodiyotda bilim va innovatsiyalar asosiy ishlab chiqarish omillaridan biri sifatida qoraladi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida boshqaruv tizimlarini takomillashtirish ham dolzarb masalalardan biridir. Almanov I.[4] tadqiqotlarida innovatsion boshqaruv modellarini joriy etish orqali tashkilotlar faoliyatining samaradorligini oshirish mumkinligi ko'rsatib o'tiladi. Ayniqsa, ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv tizimlari, raqamli platformalar va



Date: 25th March-2026

avtomatlashtirilgan qaror qabul qilish tizimlari iqtisodiy jarayonlarni yanada samarali tashkil etishga imkon yaratadi.

Raqamli transformatsiya marketing sohasiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Sobirov A.[5] tadqiqotlariga ko'ra, raqamli marketing vositalari va innovatsion texnologiyalar korxonalar uchun yangi bozor imkoniyatlarini yaratadi. Internet marketing, ijtimoiy tarmoqlar, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar texnologiyalaridan foydalanish biznes ekotizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Davlat siyosati ham raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Xabibullaev A.[6] tadqiqotlarida raqamli iqtisodiyot strategiyalarini ishlab chiqish, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash va raqamli infratuzilmani rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida ko'rsatiladi. Ko'plab davlatlar raqamli iqtisodiyot dasturlarini amalga oshirish orqali iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirishga intilmoqda.

Xalqaro tadqiqotlarda ham raqamli transformatsiyaning iqtisodiyot rivojiga ta'siri keng o'rganilgan. Egodawe M., Sedera D. va Bui V.[7] tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda raqamli transformatsiya jarayoni tashkilotlar faoliyatini modernizatsiya qilish, innovatsiyalarni rivojlantirish va yangi biznes modellarini shakllantirishda muhim omil ekanligi ta'kidlangan.

Tahlil natijalariga ko'ra, **innovatsion iqtisodiyot** rivojlanishiga ta'sir etuvchi eng muhim omillardan biri **raqamli infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi** hisoblanadi. Raqamli infratuzilma tarkibiga internet tarmoqlari, telekommunikatsiya tizimlari, ma'lumotlar markazlari hamda elektron xizmatlar kiradi. Raqamli infratuzilma qanchalik rivojlangan bo'lsa, iqtisodiy faoliyat jarayonlari shunchalik tez va samarali amalga oshiriladi. Mazkur maqola tahlili natijalari shuni ko'rsatadiki, internetdan foydalanish darajasi yuqori bo'lgan davlatlarda innovatsion faoliyat ko'rsatkichlari ham yuqori bo'ladi. Raqamli infratuzilma innovatsion g'oyalarni tezroq amalga oshirish, yangi texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish va yangi biznes modellarini yaratishga imkon beradi.

Shunday qilib, raqamli transformatsiya sharoitida innovatsion iqtisodiyotning rivojlanishi bir qator muhim omillarga bog'liq bo'lib, ular qatoriga raqamli infratuzilma rivoji, investitsiyalar, inson kapitali, innovatsion boshqaruv tizimlari hamda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari kiradi. Ushbu omillarning uyg'un rivojlanishi iqtisodiy samaradorlikni oshirish, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish hamda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa

Maqola natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiya innovatsion iqtisodiyot rivojlanishining asosiy omillaridan biridir. Raqamli texnologiyalarni joriy etish, raqamli infratuzilmani rivojlantirish, inson kapitalini oshirish, investitsiyalarni jalb qilish va davlat siyosatini qo'llab-quvvatlash orqali iqtisodiy samaradorlik va raqobatbardoshlik sezilarli darajada oshadi.



Date: 25th March-2026

Shuningdek, turli mamlakatlarning tajribalari raqamli transformatsiyaning innovatsion rivojlanishni tezlashtirish va yangi biznes modellari, mahsulot va xizmatlar yaratishda muhimligini ko'rsatadi. Shu bois, raqamli transformatsiya sharoitida innovatsion iqtisodiyotning rivojlanish omillarini kompleks tarzda qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish iqtisodiy o'sish va barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Toxirov R. Biznes subyektlarini raqamli transformatsiya orqali rivojlantirishning innovatsion usullari. – Qo'qon universiteti xabarnomasi. https://herald.kokanduni.uz/index.php/public_html/article/view/1193
2. Rafiyeva Z. Investment in Digital Infrastructure as a Key Factor in Uzbekistan's Economic Transformation. – 2025. <https://www.academicpublishers.org/journals/index.php/ijai/article/view/6807>
3. Umarmulov K., Abdunosirova N. O'zbekistonda inson kapitali raqamli transformatsiya sharoitida <https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal/article/view/818>
4. Almanov I. Raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatsion boshqaruv modellaridan foydalanish imkoniyatlari. <https://journal-web.uz/index.php/03/article/download/789/748/1495>
5. Sobirov A. Raqamli marketing va innovatsion texnologiyalar asosida ekotizim samaradorligini oshirish usullari. <https://www.ist-journal.uz/index.php/IST/article/view/423>
6. Xabibullaev A. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyalari. – Qo'qon universiteti xabarnomasi. https://herald.kokanduni.uz/index.php/public_html/article/download/904/702/1475
7. Egodawe M., Sedera D., Bui V. A Systematic Review of Digital Transformation Literature (2013–2021).

